

“TASDIQLAYMAN”

Mikrokreditbank ATB

Boshqaruv raisi

o‘rinbosari




I. Djumaniyazov

“30” *dekabr* 2026 y.

**“Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat banki balansidagi
bino inshootlarni ixtiyoriy sug`urtalash bo`yicha eng yaxshi
takliflarni tanlab olish bo`yicha**

T E X N I K T O P S H I R I Q

Kelishildi:

Buxgalteriya departamenti direktori  **U. Abdullayev**

Ishlarni boshqarish departamenti v.v.b  **Sh. Siddikov**

T/r	Talablar va ta'riflarning nomi	Ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar va ta'riflar
1.	Buyurtmachi	Mikrokreditbank ATB
2.	Sug'urta predmetining tavsifi	Bankning bino-inshootlari
3.	Moliyalashtirish manbai	Mikrokreditbank ATB o'z mablag'lari hisobidan
4.	Tanlov o'tkazish uchun asos	Bank Boshqaruvning 2026 yil 28-yanvardagi IF-1273-sonli bildirishnoma
5.	Bajariladigan ish	Bankning bino-inshootlarini har xil turdagi yetkazilishi mumkin bo'lgan zararlardan sug'urtalash
6.	Sug'urta shartlari	Sug'urtalanishi kerak bo'lgan risklar (bino-inshootlarining shikastlanishi yoki to'liq yo'qolishiga olib keladigan): - Tabiiy ofatlar, jumladan: suv toshqinlari, bo'ronlar, dovullar, jala yomg'irlar, sel va sel oqimlari, do'l, kuchli qor yog'ishi, gruntning cho'kishi, ko'chki hodisalari, yer osti suvlari ta'siri, chaqmoq urishi hamda zilzilalar. - Yong'in, quyidagi holatlar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa: • elektr tarmoqlarida qisqa tutashuv (qisqa ulanish); • bank binosida bo'lgan xodimlar yoki boshqa shaxslar tomonidan elektr jihozlaridan ehtiyotsiz foydalanish hamda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinmasligi; • gaz portlashi natijasida; • bank binosiga tutashgan boshqa obyektlardan yong'in tarqalishi oqibatida. - Bino inshootining mexanik shikastlanishi, quyidagi holatlar natijasida: • uchuvchi apparatlar, ularning bo'laklari, daraxtlar, ustunlar va boshqa buyumlarning qulab tushishi; • transport vositalari urilishi;

		qozonlar, generatorlar, yoqilg'i omborlari yoki yoqilg'i quvurlari, gaz quvurlari, gaz ballonlari, mashina va apparatlarning portlashi. - Uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari natijasida, jumladan: buzib kirib o'g'irlash, talonchilik va bosqinchilik.
7.	Sug'urtalovchi	Ushbu loyiha bo'yicha sug'urtalovchi eng yaxshi takliflar tanlovi natijalariga ko'ra aniqlanadi - Sug'urta sohasida faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaning mavjudligi. - Taklif taqdim etilgan sanada agentliklardan birining milliy shkalasi bo'yicha reytingiga ega bo'lishligi; - Axbor-reyting – “uzA++” dan past bo'lmagan; - Standart and sensitive ratings - “(uz) AA+” dan past bo'lmagan. - Moliyaviy barqarorlik xalqaro reytingining mavjudligi: - S&P – «B»dan past bo'lmalik; - Moody's – «B3» dan past bo'lmalik; - Fitch – «B» dan past bo'lmalik; - O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar agentligining AA reytingdan kam bo'lmalik; - ISO xalqaro sertifikatiga mavjudligi; - Ustav fondi 35 mlrd. so'mdan kam bo'lmalik; - “Mikrokreditbank” ATB bilan sud jarayonida bo'lmalik; - Majburiy undiruv byurosida karzi yuqligi to'grisida ma'lumotnoma taqdim etilishi (bank tomonidan gov/uz portali orqali tekshiriladi);
8.	Sug'urtalovchiga qo'yiladigan minimal talablar	Tanlov o'tkazilayotgan davrda buyurtmachi bilan sud protsesslari mavjud emasligi
9.	Franshiza	Qabul qilinmaydi
10.	Sug'urta muddati	Shartnoma bo'yicha to'lov amalga oshirilgan kundan boshlab 12 oy

11.	Takliflarni baholash mezonlari	Ishtirokchilarning takliflarini baholash eng past narx usuli bo'yicha amalga oshiriladi, bunda malaka va texnik baholashdan o'tgan va eng past narxni taqdim etgan ishtirokchi g'olib hisoblanadi.
12.	Bino inshootlar soni va qiymati	Soni jami 86 ta qiymati 725,7 mlrd. so`m